



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
3-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:
профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:
Ф.А.Сафаров
Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:
А.Н.Холиқулов

Корректор:
С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,
тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88
факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:
samiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Мургазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

МУНДАРИЖА

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов Иқтисодиёт – инсоннинг юксак тафаккур маҳсули	5
Umar Xudayberdiyev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova Aholi daromadlari va ularni ko'paytirish yo'llari.	11
Shao Junling Analysis of the role of institutional frameworks in promoting the qualitative development of the economy of the region " Belt and Road"	14
Kudratjon Bakhtiyorovich Dilmanov Characteristics of human power	17
Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishning nazariy asoslari	21
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Маҳаллада янги иш ўринларини яратиш ва бандликни оширишдаги қулайликлар ва имкониятлар	27
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Инновацион товарларни бозорда силжитишнинг ўзига хос жиҳатлари	33
Шохрухбек Жаҳонгирович Расулов Развитие нового содержания финансов в условиях инновационного развития экономики	36
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Отабек Джурабаевич Джурабаев Определение направлений оптимизации операционной стратегии и повышения экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	42
Умар Худайбердиев, Нилуфар Зиябаевна Юлдашова Ўзбекистонда чорвачилик маҳсулотларини етиштиришдаги муаммолар	46
Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев Влияние экономической либерализации на производство и эффективность продукции в мировом овцеводстве и каракулеводстве	49
Лариса Алишеровна Мусабаева B2B маҳсулотларининг мижозлар капиталини таркибий-функционал таҳлил қилиш амалиёти	53
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Shoxista Abdugapparovna Mamasoliyeva Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar boshqarish tizimini samaradorligini oshirishni iqtisodiy mexanizmlari tahlili	58
Машхур Исмоналиевич Акбаров, Кудрат Шухратович Искандаров Темирўл транспортида йўловчи ташиш сервис хизматларини баҳолаш ва такомиллаштириш йўллари	64
Мурод Максудович Паязов Темир йўл транспорти хизматлар тизимидаги бошқарув механизмининг моҳияти ва ривожлантириш методологияси	70
Зарина Муродовна Муҳаммедова Хизматлар соҳасининг тармоқлар бўйича таркибий тузилишини такомиллаштириш асосида инвестицион ресурслар самарадорлигини ошириш	76

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС

Shoxista Abdugapparovna Mamasoliyeva – SamDTU, Jamoat salomatligi va sogʻliqni saqlash menejmenti kafedrasida katta oʻqituvchisi

TIBBIY XIZMATLAR KOʻRSATUVCHI MUASSASALAR BOSHQARISH TIZIMINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNI IQTISODIY MEXANIZMLARI TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy xizmat koʻrsatishni boshqarish tizimini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va shakllantirish bilan bogʻliq boʻlgan amaliy savollarning yechimini topish uchun yetarlicha ikki va undan ortiq bir biriga qarama qarshi muammolarni tahlil qilishda tibbiy xizmatlar sohasi boshqarilishi samaradorligini oshirish mexanizmlariga oid takliflar berildi.

Kalitli soʻzlar: iqtisodiyot, tibbiy xizmatlar, boshqarish, strategiya, sogʻliqni saqlash tizimi, bozor, tendensiyalar, ilmiy-texnikaviy jarayon, iqtisodiy omillar.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyo boʻyicha, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy qonuniyatlaridan biri milliy iqtisodiyotni samaradorligini oʻsishini taʼminlash uchun barcha sohalarida xizmat koʻrsatishni oʻrni va sifatini oshirishdan iborat. Bu esa oʻz navbatida xizmat koʻrsatish sohasidagi asosiy iqtisodiy, mehnat, moddiy hamda moliyaviy resursning ulushi oshishida aks etadi. Hozirda barcha xizmat koʻrsatish sohasini, shu oʻrinda tibbiy xizmatlar koʻrsatishni rivojlantirish hamda shakllantirishda turli xil holatlar, jumladan, xizmat koʻrsatish turlarini kengayishi va oshishi, yangi soha va ixtisosliklarni vujudga kelishi, moddiy texnik baza taʼminoti, yangi mehnat bazasini shakllanishi, texnik jihozlar bilan taʼminlanganlik darajasini oʻsishi, shuningdek zamonaviy oʻta yangidan yangi usullarni tatbiq etilishi kuzatilmoqda. Bu esa xizmat koʻrsatish sohasini boshqarilishini iqtisodiy jihatdan yanada takomillashtirish va rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Xizmat koʻrsatish sohalari tasnifi aynan jamiyatimizda koʻrsatilayotgan turli xil xizmatlar doirasida yangiliklarni juda yuqori tezlikda kirib kelishi va ularni takomillashtirilishi bilan tasniflanadi. Masalan: aholi salomatligini yaxshilashda sogʻliqni saqlash sohasida koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlarda olib borilayotgan chuqur islohotlar, ilmiy izlanishlar, tibbiy texnika hamda asbob uskunlarni zamonaviy turlarning kirib kelishi, xususiyl tibbiy xizmat koʻrsatishni yangidan yangi turlarini shakllanishi bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Bugungi kun zamonaviy dunyo miqyosida juda ham katta kuchga ega boʻlgan modernizatsiyalash, globallashtirish hamda xalqarolashtirish jarayonlari bilan tavsiflanadi. Markazga ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, etnik va shu kabi u bu jarayonlarni tan olingan barcha dunyo amaliyoti jalb qilinadi. Bunda rejani amalga oshirishda barcha tarmoqlar kabi jamoat salomatligini tashkillashtiruvchi – sogʻliqni saqlash sohasi ham xoli emas.

Hozirda dunyo miqyosida globallashtirish jarayoni kengaymoqda, shu sababdan u butun insoniyat hayotida, jamoat salomatligi bilan bogʻliq boʻlgan moddiy, maʼnaviy, energetik, moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa oqimlar sohasidagi kuchli siljishlarga katta taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Yangilash, yangilikga kiritilishi, integratsiya ijobiy yoki salbiy natijalarni beruvchi yangidan yangi tarkibiy tuzilmalar, yangi oqimlarni va aksincha boʻlgan xolatlarni vujudga keltiradi.

Yuqorida aytib oʻtilgan integratsion almashinuv jarayonlari barcha sohalarni parchalanishi, yangidan vujudga kelishi bilan birgalikda yonma yon turadi. Buning oqibatida barcha tarmoqlar sohasida boʻlgani kabi sogʻliqni saqlash tarmogʻida yaʼni aholi salomatligini taʼminlashda qoʻllaniladigan tibbiy xizmatlar koʻrsatish sohasida kuchli oʻzgarishlar amalga oshishi kuzatilmoqda. Yaʼni tibbiyotda ilmiy izlanishlar, ilmiy goʻyalar targʻiboti, yangidan yangi zamonaviy tibbiy texnika vositalari hamdi soʻgʻlikni saqlash tizimini boshqarish va uni iqtisodiyot bilan bogʻliq boʻlgan yangiliklar bunga yaqqol dalil boʻla oladi. Internalizatsiyalash jarayoni oʻz ichiga mamlakatni turli davlatlar bilan hamkorlik qilishi natijasida olingan milliy qadriyatlarni imkoniyatlarini va yutuqlari bilan jahon tsivilizatsiyasini boyitish imkoniyatini qamrab oladi.

Mamlakatimizda yuqorida ta’kidlab o’tilgan yutuqlar va ijobiy natijalar hamda yangiliklarning ko’p qirrali jihatlarini sog’liqni saqlash jarayoniga tatbiq etilishiga qaramasdan, asosan tibbiyot sodir bo’layotgan o’zgarishlar va rivojlanishdan qat’iy nazar, unda hali hanuzgacha kamchiliklar uchraydi hamda bugungi kungacha dolzarb bo’lib kelayotgan muammolar muntazam ravishda o’sib bormoqda. Davlatimizda aholi salomatligi bilan bog’liq bo’lgan jarayonlarni yaxshilanishi, zamonaviy rivojlangan sog’lom jamiyatni yaratilishi, bugungacha asrlar mobaynida erishilgan ilm-fan va texnika yutuqlari - salomatlikka bo’lgan talablar hamda faol sog’lom umr davomiyligi, sog’lom turmush tarzini shakllantirish bilan bog’liq jarayonlar orqada qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiy xizmatlar sohasida muassasa boshqarish tizimini samaradorligini oshirishni iqtisodiy mexanizmlari tahlili bo’yicha bir qancha sog’liqni saqlash tizimini boshqarish va undagi moliyalashtirish tizimini isloh qilishi, tibbiy sug’urta mexanizmlarini joriy etish va shunga o’xshash Prezident Qarorlari ishlab chiqilgan, shuningdek, mamlakatimiz olimlaridan

K.Shadmanov va bir qancha MDH olimlari B.B. Uyba, V.M. Chernishev, O.V.Pushkaryov, O.V. Strel’chenko, A.I. Klevasov, Y.V.Bakalskaya, Y.B. Brilyayeva, I.B.Polyakov. A.B.Maksimov, T.X. Savinov, A.I.Sagov, R.Sh. Sungatov, O.Skobolin. A.I.Diryabin, I.V.Vengerova va Z.Ziganshina kabi olimlar bir qancha ilmiy ishlar olib borgan va ilmiy yangiliklar yaratgan.


Tadqiqot metodologiyasi. Kuzatuv davomida tibbiy xizmatlar sohasida muassasa boshqarish tizimini samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlari tahlili o’rganilgan hamda tibbiy xizmat ko’rsatuvchi muassasa faoliyatini samarali boshqarish mexanizmini shakllantirish borasidagi induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan

Tahlil va natijalar. Tibbiy xizmat ko’rsatishni boshqarish tizimini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan amaliy savollarni yechimini topish uchun etarlicha ikkita yoki undan ortiq bir biriga qarama qarshi muammolarni tahlil qilishni talab etadi hamda ularni o’rganish lozim bo’ladi. Ulardan **birinchisi**, ko’pincha, tez-tez bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko’rsatish sohasida, jumladan tibbiy xizmatlar ko’rsatish va ularni boshqarish tizimida global jarayonlar, muammolar togrisidagi strategik fikrlash yoki tassavurga ega bo’maslik, yoki u haqida tushunchaning yetarlicha emasligidir. Bunda nafaqat nazariy va amaliy tibbiyotga oid fan yo’nalishlaridagi rivojlanishlar, undagi yangiliklar, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, balki shuningdek, iqtisodiy omillar ham muhim ahamiyatga egadir ya’ni - bugungi kunda nafaqat tibbiy xizmatlar qo’yilgan narx-navoning ancha qimmatligiga, balki ba’zan yuzaga kelayotgan individual xavf omillarining ko’payishi bilan bog’liq eksklyuziv xususiyatga egadir.

Ikkinchidan esa, kuzatuvlar natijasida dunyo bo’yicha, shuningdek mamlakatimizda ham bozor munosabatlarini shakllanishi bilan bog’liq ravishda aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmatlar, xususan, xususiy tibbiy xizmatlar borasidagi raqobatning kuchayishi, ular orasida keskin kurashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Buning oqibatida ko’rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati, boshqaruv tizimi, tashkiliy jihatlar, shart sharoitlar, bajaruvchilarning javobgarligi, undagi xavf xatarlar, axloqiy hamda etnik bilan bog’liq muammolarni keskinligi va ularni kuchayishi bilan tasniflanadi. Boshqa davlatlarda kuzatilgandek, mamlakatimizda sog’likni saqlash tizimi borasida olib borilayotgan islohatlar hamda sog’lom turmush tarzini shakllantirish davolovchi yoki tuzatuvchi tibbiyotga alohida umid bog’lanadi va ba’zan sarflanadi Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko’rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog’lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz 1.

Hayotimizda kuzatilayotgan tashqi va ichki ta’sirlar, endogen va ekzogen omillarni hisobga olib o’tkazilgan kompleks tadbirlar aynan tibbiy xizmatlar sohasidagi boshqarish faoliyati bilan bog’liq vazifalarga oid bir biri bilan uzviy ketma-ketlikda ifodalanuvchi bir qator bloklarni namoyon etuvchi boshqarish mexanizmlari shakllantirishni talab qiladi. Bu esa rasmda ifoda etilgan (Rasm-1).

¹ <https://daryo.uz/2021/11/06/shavkat-mirziyoyevning-inauguratsiya-marosimida-sozlagan-nutqi/>



1-Rasm. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasa faoliyatini samarali boshqarish mexanizmini shakllantirish, tahlil qilish omillaridagi bloklar ketma ketligi

Ilm-fanga boy, yangiliklar bilan boyitilgan, ilmiy texnik jihatdan asoslangan zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini muvaffaqiyatli faoliyatini strategik boshqaruv rejasi shakllantirishni boshlang'ich nuqtasi ko'proq uchinchi sektori – xizmat ko'rsatish iqtisodiyotning hisobga olgan holdagi dunyodagi globallashuv, intergratsiya va har bir davlart o'ziga xos aynan shu sohani rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlarni, tendensiyalar va qonuniyatlarni muntazam ravishda tahlil qilish (Monitoring o'tkazish) tarafdoridir.

Bu borada mamalakatimizda bir qancha qonunlar ishlab chiqilgan va chora tadbirlar o'tkazilmoqda. Bular jumlasiga “Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash va sog'liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi-

da”gi Qarori¹, 2022-yil 18-mart kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan “Tibbiyotdagi islohotlar — inson qadri uchun” mavzusidagi ochiq mulqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ichlab chiqilgan “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori² shular jumlasiga kiradi. Yana shuni aytish lozimki, yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning eng ko‘proq ulushi aynan tibbiy sohasiga ajratilib yaratiladi, sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu holat ko‘proqdir. (60-70% gacha). 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich va‘ni yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarida 888,3 trln so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yil davomida yalpi ichki mahsulot hajmi 5,7 foizga o‘sd³.

Sog‘likni saqlash sohasi boshqa sohalarga tibbiyotga xos nisbatan ilm fan yutuqlari, kompyuter tizimi va unga xos jihozlari, lazer texnologiyasi va bilimlari, transpantologiya, farmatsevtika, genetika, operativ jarroxlilik aralashuvlar hamda konservativ davoash uslublari shu kabi boshqa yangi yo‘nalishlar ixtisoslashtirish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar asosiy birinchi (1) blokka xosdir (1-rasm).

Kuzatuvimizdagi keyingi bosqichlarda ikinchi (2) hamda ushunchi (3) bloklar va‘ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ilmiy texnikaviy taraqqiyotining o‘zaro bog‘liqlik tahlilini o‘rganish lozim. Aynan bu ikki blok bir-biriga chambarchas bog‘liqdir va shu bilan birga alohida rivojlanuvchi, kuchli mustaqil fikrlovchi, etarlicha mantiqqa ega bo‘lgan yo‘nalishlari filiallari mavjuddir. Bunda kuzatuvlarni nafaqat texnikaviy jarayonni rivojlantirish, balki yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklarni ham ob‘ektiv ravishda olib borish lozim. Zamonaviy tibbiy texnikalarning qo‘llanishi, kompyuter texnologiyasi vositalari va tizimi⁴, tibbiy xodimlar xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan ularni tavsiya etilishi bugungi kunda haqqoniv hech qandav shaxsiy manfaatni ko‘zlamasdan, aynan salomatlikni yaxshilash borasida olib borilayotgan hamda tashxis qo‘yishda foydalinalayotganligini, ishchilarning bilimlarni rasmiylashtirishning etarli darajasiga ega bo‘lgan holda bu tizimga qullik holatiga tushib qolayotganligi ayniqsa xavflidir.

Hozirda tibbiyotning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ham aynan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ko‘p tomonlama bog‘liqligi asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Yuqori texnologik apparatlar qiymati, ularning bozor iqtisodiyotidan kelib chiqqan holdagi xizmat narxi, tavsiyanomalarni ishlab chiqilishi, tadbiriq etilishi, tasdiqlanishi, ular bilan bog‘liq sarf-xarajatlar, kadrlar malakasini muntazam ravishda oshirish va yangilash hamda tashkillashtirish bilan bog‘liq muammolar, ularni bartaf etish chora-tadbirlar, dunyo iqtisodiyotida bo‘yicha, jumladan O‘zbekistonda ham kuzatilayotgan iflyatsiya holatlari ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning mavjud bo‘lgan muhim xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davlatning bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab kompleksli tashkiliy shakl va munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Buning negizida aholining alohida qatlamlarida sog‘lom turmush tarzini sifatini yaxshilash darajasi hamda amaliy va nazariy tibbiyotni holatini o‘rganish hamda ularni yanada takomillashtirish kategoriyalari yotibdi. Chunku, bu holatni qanchalik chuqur tahlil qilmaylik, ijtimoiy iqtisodiy jarayonning rivojlanishi o‘zgaruvchan holatdir. Bunda tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni alohida guruhlariga ajratish nafaqat ularning olayotgan daromadiga, iqtisodiy holatiga, balki ijtimoiy darajasi, demagragik o‘rni axborot texnologiyasi bilan ta‘minlanganligi, etarlicha kasbiy malakaga egaligiga ham bog‘liqlik darajasida yanada rivojlantirish hamda istiqbolini belgilashdan iboradir. Bu borada Prezidentimizning 2021 yil 25 maydagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5124-sonli Qarorning 11-bandi hamda 2021-yil 28-iyuldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5199-sonli Qarorlari bunga yaqqol misoldir.

Yurtimizda oxirgi yillarda barcha xizmat ko‘rsatish sohalarda bo‘lganidek, sog‘liqni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 11.11.2021 yildagi PQ-6-son. <https://lex.uz/docs/-5723701>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.04.2022 yildagi PQ-215-son. <https://lex.uz/en/docs/-5979130>

³ <https://kun.uz/news/2023/01/27/2022-yilda-ozbekistonda-yalpi-ichki-mahsulot-57-foizga-osdi>

⁴ Колпаков Е.И. Медицинская техника и современные технологии. [Электронный ресурс]. -Режим доступа: www.technology.ru

saqlash tizimida ham to‘xtovsiz muntazam ravishda hozirgacha bosqishma-bosqich islohotlar amalga oshirilib, modernizatsiyalash ishlari olib borilmoqda. Aholi salomatligini saqlash va uni yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik borasida ichlab chiqilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash, respublika aholisiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish, kasalliklarni hududlar bo‘yicha chuqur o‘rganib tahlil qilish va hududlarning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi va davolashning zamonaviy va ilg‘or usullarini amaliyotga tatbiq etish, shifoxonalarni zamonaviy tibbiy asbob – uskunalar bilan ta‘minlanib, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida kadrlar kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, operativ mahoratini boyitish borasida viloyat sog‘liqni saqlash tizimida muayyan natijalarga erishilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli yarmi eng kerakli tibbiy xizmatlar bilan to‘liq qamrab olinmagan. 800 milliondan ortiq aholi yoxud dunyo aholisining 12 foizi daromadlarining kamida 10 foizini sog‘liqni saqlash xarajatlariga sarflashadi¹. Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib shuni aytish joizki, ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirishi va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirilishi kengayishi hududlardagi aholiga yanada barcha darajadagi sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish va iqtisodiy jihatdan hamyonbopligi va barcha imkoniyatlardan foydalanish ruxsatini beradi.

Shuni aytish lozimki, zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanish natijalari aholiga, aynan bemorlarga nazariy o‘rinda izohlangani kabi amaliyotda kuzatilayotgan holatlarga umid qilib qolmasliklarini hisobga olib, ularni ham asosan zamonay ilm-fanni rivojlanish bir qancha asosiy tendentsiyalarga bog‘liqligini ogohlantirilishi kerak. Bular quyidagilardir:

- Tibbiyotga oid bo‘lgan ma‘lumotlarni juda tezlik bilan ortib borishi va ularni keskin ravishda hali qollanishga ulgurmasdan eskirishi (asosan diagnostik va davolash usullari);
- Tibbiyotning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi (bu o‘rinda matematik hisoblash usul-uslublari va tibbiy ma‘lumotlarga ishlov berishdagi uning ahamiyati, diagnostik va davolash jarayonlarga qayta ishlov berish hisob-kitoblar);
- Diagnostika hamda davolash ishlarini barcha qirralarda yuqoritexnologik usullar va kompyuterlashtirish o‘rmini oshirish;
- Fundamental va nazariy ilmiy tadqiqotlar ulushini oshirish, dastlab, kashfiyotlar va ularni tatbiq etilishi orasidagi oraliqni kamaytirish, so‘ngra tajriba natijasini amaliyotga qo‘llanilishini ta‘minlash hamda uni shakllanishini yana jadallashtirish;

Yuqorida aytib o‘tilgan jarayonlarni tashkillashtirish va boshqarishni samaradorligini oshirishni iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Tibbiyotda bugungi kungacha kengayib borayotgan global bo‘lib kelayotgan muammolar aynan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy omillarga bog‘liqdir. Bular jumlasiga:

- dastlab xizmat ko‘rsatiluvchi ixtisoslik bilan amalda tibbiy yordam orasidagi qarama-qarshiliklar;
- talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosibliklar;
- malakali diagnostika va amaliy terapiya imkoniyatlarning orasidagi tafovutining kuchayib borishi;
- tibbiy xizmatlar narxining oshib borishi, asosan ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar qiymati;
- tor yo‘nalishdagi tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi shifokorlar dunyoqarashini pasayib borishi kiradi.

Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilgan islohatlar va erishilgan yutuqlarga qaramasdan ijtimoiy-iqtisodiy tasnifga ega bir qator omillar hali hanuzgacha mavjuddir, ular:

- bir qator demofrafik joylashuv va aholini o‘rtacha umr davomiyligi, qarish jarayoni;
- kasallikni kechish jarayonidagi o‘zgarishlar (patologik jarayon) va unga ta‘sir etuvchi omillar;
- allergiyani kuchayishi, mavsumiy holatlar ta‘siri;
- yuqumli kasalliklarni yuzaga keltiruvchi tub negiz-o‘choq chegaralarni kengayishi;
- aholi orasida profilaktikaning muhim ahamiyatini shakllantirish borasidagi muammolar;
- asab kasalliklar ko‘rsatkichinini ortib borishi va hokazolardir.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd etilgan barcha (5,6,7)bloklarda asosan aholi salomatligini yaxshilash, sog‘lom turmush tarzi va turmush darajasi, hayot uslubi bo‘lgan qarashlarni yanada

1 Sifatli tibbiy xizmat — sog‘lom hayot omili. - <https://dtsj.uz/sifatli-tibbiy-xizmat-soglom-hayot-omili/>

kengaytirish hamda tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi(9,10,11-bloklar)da aynan diagnostikani zamonaviy instrumental ulullari, davolash va realitatsiya kabi samarali usullarni shakllantirish lozimligi nazarda tutiladi. 12-13 bloklarda boshqarishni samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, uni tahlil qilish, shuningdek ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni mijoz foydasini ko'zlagan holda shakllantirishi kerak.

Tibbiy xizmatlar bozorini muvaffaqiyatli faoliyati uchun bozorni samarali segmentlash va uni potensial hajmini aniqlash va oshirish lozim. Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlil qilingan barcha bloklar aynan tibbiy xizmatlar sohasi boshqarilishini samaradorligini oshirish mexanizmlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kushmatova D. SOME ASPECTS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE FOR STUDENTS //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 7. – С. 101-103.
2. Мамасолиева С.А., Каримов А.А. НАУЧНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ //Восточный ренессанс: инновационные, образовательные, естественные и социальные науки. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 484-490.
3. Мадаханов А. С., Мамасолиева Ш. А. Инновационные подходы к использованию рекреационных ресурсов в малых городах //Сучасні детермінанти розвитку бізнес-процесів в Україні. – Київський національний університет технологій та дизайну, 2019.
4. Ergashevna K. D. Difference Between Public Health And Healthcare Management //JournalNX. – 2021. – Т. 7. – №. 05. – С. 74-76.
5. Мамасолиева Ш. АҲОЛИГА КўРСАТИЛАЁТГАН ТИББИЙ ХИЗМАТЛАРНИНГ ИЖТИМОЙИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИ ТАШКИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ //Involta Scientific Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 419-428.
6. Mamasolieva S. A., Karimov A. A. SCIENTIFIC ASPECTS OF FORMATION OF THE SOCIO-ECONOMIC MECHANISM OF MEDICAL SERVICES //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 484-490.
7. Ergashevna K. D. et al. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 12. – С. 177-180.
8. Ergashevna K. D. et al. The Level and Structure of the Incidence of Malignant Tumors of the Oral Cavity Among the Population of the Republic of Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 12. – С. 177-180.
9. Мамасолиева, Шохиста Абдугапаровна, Абдусодик Болгаевич Болгаев, and Феруза Саломовна Саидова. "Обобщение теоретических положений по оценке социально-экономической эффективности медицинских услуг и их качества." Молодой ученый 4 (2020): 199-203.
10. Жасур Р., Шахноза Ю., Шоксиста М. Формирование и совершенствование здорового образа жизни у студентов высших учебных заведений //Журнал биомедицины и практики. – 2022. – Т. 7. – №. 3. – С. 181-189.

<p style="text-align: center;">Ш. Мамасолиева</p> <p style="text-align: center;">Анализ экономических механизмов повышения эффективности системы управления учреждением в области медицинских услуг</p> <p>Аннотация: В данной статье с целью поиска решения практических вопросов, связанных с развитием системы управления медицинской службой, ее эффективностью и формированием, сделаны предложения относительно механизмов повышения эффективности управления медицинской службой при анализе двух или более противоречивых проблем.</p> <p>Ключевые слова: экономика, медицинские услуги, управление, стратегия, система здравоохранения, рынок, тенденция, научно-технический процесс, экономические факторы.</p>	<p style="text-align: center;">Sh. Mamasolieva</p> <p style="text-align: center;">Analysis of economic mechanisms for increasing the efficiency of the management system of an institution in the field of medical services</p> <p>Abstract: In this article, in order to find solutions to practical issues related to the development of a medical service management system, its effectiveness and formation, proposals are made regarding mechanisms for increasing the efficiency of medical service management when analyzing two or more conflicting problems.</p> <p>Keywords: economics, medical services, management, strategy, healthcare system, market, trend, scientific and technical process, economic factors.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023